



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA  
VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI  
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SPORT VAZIRLIGINING  
QARORI**

**Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimidagi umumiy o‘rta ta’lim  
tashkilotlarining jismoniy tarbiya fani pedagog kadrlarini o‘quv fanidan  
malaka sinovlarini tashkil etish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida jismoniy tarbiya fani o‘qitilishini tubdan takomillashtirish hamda ushbu fan o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 15-noyabrdagi PQ–392-son qarori hamda Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 17-sentabrdagi 572-son qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda Sport vazirligi **qaror qiladi:**

1. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimidagi umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarining jismoniy tarbiya fani pedagog kadrlarining o‘quv fanidan malaka sinovlari amaliy imtihoni har yili ikki mavsumda O‘zbekiston Respublikasi Sport vazirligining (keyingi o‘rinlarda – Sport vazirligi) attestatsiyani tashkil etish va o‘tkazish reja-jadvali asosida o‘tkazilsin.

2. Belgilansinki:

umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarining jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilarining mutaxassislik fani va kasb standarti bo‘yicha bilim darajasi hamda pedagogik mahoratini baholash test shaklida O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi (keyingi o‘rinlarda - Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi) tomonidan o‘tkaziladi;

malaka sinovlarini amaliy imtihon shaklida o‘tkazish reja-jadvali hamda tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha hududiy ishchi guruhlar va baholash komissiyasi tarkibi malaka sinovi o‘tkazilishidan kamida o‘n kun oldin Sport vazirligi tomonidan tasdiqlanadi va e‘lon qilinadi;

amaliy imtihon natijalaridan norozi bo‘lgan pedagog kadrlarning murojaatlarini malaka sinov natijalari e‘lon qilingan kundan boshlab o‘n kun mobaynida Sport vazirligi tomonidan tuzilgan apellyatsiya komissiyasi xodim ishtirokida ko‘rib chiqadi;

Apellyatsiya komissiyasi amaliy imtihon natijalaridan norozi bo'lgan pedagoglarning murojaatlarini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibi to'g'risida 572-sonli qaror bilan tasdiqlangan nizom talablari asosida ko'rib chiqadi.

### 3. Quyidagilar:

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari uchun amaliy imtihon sinovlarining jismoniy tayyorgarlik darajasi normativi 1-ilovaga muvofiq;

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari uchun amaliy imtihonlarining sport turlari bo'yicha mashqlar texnikasi va baholash mezonlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

### 4. Respublika ishchi guruhi va baholash komissiyalari:

umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarning ta'lim to'g'risidagi hujjatida ko'rsatilgan tayyorlov, ta'lim yo'nalishi, kasbi va mutaxassisligi yoki ixtisosligi bo'yicha bilimlarini shaffof va adolatli sinovdan o'tkazilishini ta'minlasin;

amaliy imtihon jarayonida mazkur qarorning 1 – 2-ilovalari bilan tasdiqlangan jismoniy tayyorgarlik darajasi normativi, sport turlari bo'yicha mashqlar texnikasi va baholash mezonlariga qat'iy rioya qilsin;

amaliy imtihon jarayonlari yakunlanganidan so'ng baholash komissiyasi natijalarni shu kunning o'zida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining pedagog.uzedu.uz platformasiga kiritilsin;

amaliy imtihon natijalariga doir ma'lumotlarni sinovlar yakunlangan kundan boshlab bir kun muddatda Sport vazirligiga taqdim etsin.

5. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidagi Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi huzuridagi Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi (D.Davidova):

malaka sinovi materiallarini ko'p variantlilik asosida maxfiyligini ta'minlagan holda nazorat savollari bankini shakllantirsin;

malaka sinov yakunlari bo'yicha ma'lumotlarni umumlashtirish va tahlil qilish ishlarini amalga oshirsin;

malaka sinovlari bilan bog'liq xarajatlar bo'yicha talabnomalarni o'z rahbariyatiga taqdim etsin.

6. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining Pedagog kadrlarga malaka toifalarini berish jarayonini tashkil etish va kasbiy sertifikatlash boshqarmasi (U.Dusnazarov):

maxsus platforma orqali malaka sinovlarida qatnashish istagini bildirgan pedagoglarning murojaatlarini ko'rib chiqishni tashkil etsin;

amaliy imtihon natijalarini Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining onlayn platformasiga kiritishni Sport vazirligi mas'ul xodimiga ruxsat bersin;

malaka sinovidan muvaffaqiyatli o'tganlarga elektron shakldagi sertifikatlarni berish choralarini ko'rsin.

7. Sport vazirligining Sport maktablari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi (M.Raxmatxujayev), Qoraqalpog'iston Respublikasi sport vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar sport boshqarmalari boshliqlari:

amaliy imtihon jarayonlarida O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining hamda O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining hududlardagi vakillari ishtirokini ta'minlasin;

ishchi guruhlar shaffoflik tamoyili asosida ishlashini va amaliy imtihon jarayonlarini o'tkazish uchun zarur barcha shart-sharoitlar yaratilishini tashkil etsin;

pedagog kadrlarning o'quv fanidan amaliy imtihon malaka sinovlarini baholash bo'yicha ishchi guruhlar a'zolarining o'z vaqtida malaka sinovlarida ishtirok etishini ta'minlasin;

amaliy imtihon jarayonlarini ovozli va videotasvirga olinishini tashkil etish hamda video tasvirning kamida bir yil saqlanishini ta'minlash choralari ko'rsin;

amaliy imtihon natijalarini umumlashtirsin hamda tasdiqlangan natijalarni jarayonlar yakunlanganidan so'ng besh kun muddatda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga taqdim etsin.

8. Malaka toifa sertifikatlari Sport vazirligi tomonidan tasdiqlanib Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga taqdim etilgan ikkinchi bosqich amaliy imtihon hamda birinchi bosqich natijalari asosida shakllantiriladi.

9. Qoraqalpog'iston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshliqlari:

jismoniy tarbiya fani o'qituvchilariga malaka toifalarini berish tartibi bo'yicha tegishli tushuntirishlar berilishini tashkil etsin;

attestatsiyaga jalb etilgan pedagog kadrlarning o'quv fanidan malaka sinovlarida o'z vaqtida ishtirok etishlarini ta'minlasin.

10. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining Axborot xizmati (D.Sobirova) hamda Sport vazirligining Axborot xizmati (N.Salomov) malaka sinovlari jarayonlarini rasmiy veb-saytlarda, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borilishini ta'minlasin.

11. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Devonxonasi (X.Raximbayeva) va Sport vazirligining Devonxonasi (S.Rasulova) bir kun muddatda mazkur qarorni barcha tegishli tarkibiy bo'linmalarga yetkazilishini ta'minlasin.

12. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2025-yil 14-fevraldagi 6 q/q-son hamda Sport vazirligining 2025-yil 18-fevraldagi 4 q/q-son "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidagi umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining jismoniy tarbiya fani pedagog kadrlarini o'quv fanidan malaka sinovlarini tashkil etish to'g'risida"gi va Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2025-yil 31-oktyabrdagi 57 q/q-son hamda Sport vazirligining 2025-yil 31-oktyabrdagi 39 q/q-son "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda Sport vazirligining 2025-yil 14-fevraldagi 6-q/q, 4-q/q-sonli qaroriga o'zgartirish kiritish to'g'risida"gi qarorlari o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

13. Ushbu qaror imzolangan kundan e'tiboran kuchga kiradi.



O'zbekiston Respublikasi  
Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi  
hamda Sport vazirligining  
2026-yil 07 - aprel dagi  
12-q/9 -va 23-q/9 -son qaroriga  
1-ILOVA

**Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari  
uchun amaliy imtihon sinovlarining jismoniy tayyorgarlik darajasi  
normativi (20 ball)**

Erkaklar uchun										
100 m.ga yugurish (s)		60 m.ga yugurish (s)				Gimnastika o'rindig'idan oyoq tizzalarini bukmay oldinga egilish (oyoq ostidan pastga hisoblanadi, sm)				Ballar
18-24 yosh	25-29 yosh	30-34 yosh	35-39 yosh	40-44 yosh	45-49 yosh	50-54 yosh	55-59 yosh	60-64 yosh	65 va undan katta yosh	
13,1	13,3	8,8	9,1	9,6	10,5	+2	0	0	-2	7
13,5	13,8	9,8	10,2	10,6	11,3	+1	-1	-1	-3	6
14,1	14,3	10,7	11,3	11,5	12,0	0	-2	-2	-4	5
14,3	14,6	11,0	11,5	11,8	12,8	-1	-3	-3	-5	4
14,4	14,8	11,3	11,7	12,0	13,5	-2	-4	-4	-6	3
14,5	14,9	11,5	11,8	12,2	14,0	-3	-5	-5	-7	2
14,6	15,0	11,7	11,9	12,4	14,5	-4	-6	-6	-8	1

Erkaklar uchun										
Yerga tayangan holda qo'llarni bukib yozish (marta)		Gimnastika o'rindig'idan oyoq tizzalarini bukmay oldinga egilish (oyoq ostidan pastga hisoblanadi, sm)		Yerga tayangan holda qo'llarni bukib yozish (marta)				Qo'llarni oldinga cho'zgan holda o'tirib-turish (marta)		Ballar
18-24 yosh	25-29 yosh	30-34 yosh	35-39 yosh	40-44 yosh	45-49 yosh	50-54 yosh	55-59 yosh	60-64 yosh	65 va undan katta yosh	
48	46	+11	+10	24	20	14	10	12	10	7
42	40	+8	+7	22	18	12	9	11	9	6
36	34	+5	+4	20	16	10	8	10	8	5
33	31	+4	+3	18	14	8	7	9	7	4
30	28	+3	+2	16	12	7	6	8	6	3
28	26	+2	+1	14	10	6	5	7	5	2
26	24	+1	0	12	8	5	4	6	4	1

<b>Erkaklar uchun</b>										
Chalqancha yotgan holatdan gavdani 90° ga ko'tarib tushirish (1 daq, marta) (oyoqni yengil ushlab turish)		Turgan joyidan uzunlikka sakrash (sm), (3 ta imkoniyatdan eng yaxshisi hisoblanadi)		Turnikda tortilish (marta)				Yurish (12 daqiqa) metrda		Ballar
18-24 yosh	25-29 yosh	30-34 yosh	35-39 yosh	40-44 yosh	45-49 yosh	50-54 yosh	55-59 yosh	60-64 yosh	65 va undan katta yosh	
40	37	230	225	9	8	6	5	1380+	1250	6
37	35	220	215	7	6	5	4	1265	1175	5
35	33	210	205	6	5	4	3	1150	1100	4
32	30	205	200	5	4	3	2	1045	1000	3
30	28	200	195	4	3	2	1	940	900	2
27	25	195	190	3	2	1	0,5	885	850	1

<b>Ayollar uchun</b>										
100 m.ga yugurish (s)		60 m.ga yugurish (s)		30 m.ga yugurish (s)		O'tirib turish (qo'llar bilan tayangan holda), (marta)		Yurish (12 daqiqa) metrda		Ballar
18-24 yosh	25-29 yosh	30-34 yosh	35-39 yosh	40-44 yosh	45-49 yosh	50-54 yosh	55-59 yosh	60-64 yosh	65 va undan katta yosh	
15,0	16,0	10,5	11,0	6,2	6,5	30	25	1450+	1300	7
15,7	16,6	11,3	12,2	6,8	7,4	25	22	1325	1225	6
16,4	17,2	12,1	13,4	7,4	8,2	22	20	1200	1150	5
16,7	17,5	12,6	13,6	8,0	8,5	20	16	1100	1050	4
17,0	17,8	13,1	13,8	8,5	8,7	15	12	1000	950	3
17,2	18,0	13,3	14,0	8,7	8,9	12	10	950	900	2
17,4	18,2	13,5	14,2	8,9	9,1	10	8	900	850	1

Ayollar uchun										
Yerga tayangan holda qo'llarni bukib yozish (marta)	Gimnastika o'rindig'iga tayangan holda qo'llarni bukib yozish (marta)							1 metr pastki turnikni ushlagan holda o'tirib-turish (marta)		Ballar
	18-24 yosh	25-29 yosh	30-34 yosh	35-39 yosh	40-44 yosh	45-49 yosh	50-54 yosh	55-59 yosh	60-64 yosh	
17	16	13	11	10	9	8	7	10	8	7
14	13	10	9	8	8	7	6	9	7	6
12	11	9	8	7	7	6	5	8	6	5
11	10	8	7	6	6	5	4	7	5	4
10	9	7	6	5	5	4	3	6	4	3
9	8	6	5	4	4	3	2	5	3	2
8	7	5	4	3	3	2	1	4	2	1

Ayollar uchun										
Turgan joyidan uzunlikka sakrash (sm), (3 ta imkoniyatdan eng yaxshisi hisoblanadi)				O'tirib turish (marta)		Gimnastika o'rindig'idan oyoq tizzalarini bukmay oldinga egilish (oyoq ostidan pastga hisoblanadi, sm)				Ballar
18-24 yosh	25-29 yosh	30-34 yosh	35-39 yosh	40-44 yosh	45-49 yosh	50-54 yosh	55-59 yosh	60-64 yosh	65 va undan katta yosh	
180	175	170	165	40	35	0	-2	-2	-3	6
175	170	165	160	35	32	-1	-3	-3	-4	5
170	165	160	155	32	28	-2	-4	-4	-5	4
160	155	150	145	28	24	-3	-5	-5	-6	3
150	145	140	135	24	20	-4	-6	-6	-7	2
145	135	130	125	12	15	-5	-7	-7	-8	1

Izoh: "-" belgiga ball berilmaydi.

**Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari  
uchun amaliy imtihonlarining sport turlari bo'yicha mashqlar texnikasi  
va baholash mezonlari (40 ball)**

T/r	Sport turlari bo'yicha mashqlar nomi	Ball
	<b>Gimnastika sport turi bo'yicha</b>	
1.	Gimnastika o'rindig'ida bir oyoqda 2-3 soniya davomida "Qaldirg'och" holatida turish texnikasi	5 ball
	Gimnastika narvonida osilib oyoqlarni 90° ga ko'tarish texnikasi (1-3-marta)	
	Ikki marta ketma-ket oldinga umbaloq oshib "Kurak"larda tik turish texnikasi (1-3-marta)	
	Bosh va qo'llarga tayanib oyoqlarni tik tutish texnikasi (1-3-marta)	
	Umumiy rivojlantiruvchi majmua (8-16-32 talik kompleks) mashqlarini (sanash bilan) bajarish texnikasi (1-3-marta)	
	"Saflan", "Tekislan", "Rostlan", "O'ngga", "Chapga", "Ortga", "Qadam bos"..., (buyruq berish ohangi) harakatlar texnikasi	
	<b>Yengil atletika sport turi bo'yicha</b>	
2.	Pastki startga turish va startdan chiqish texnikasi	5 ball
	Yuqori startga turish va startdan chiqish texnikasi	
	Yengil atletika maxsus yurish va yugurish mashqlari texnikasi	
	Yugurib kelib balandlikka "Hatlab o'tish" usulida sakrash texnikasi (1-3-marta)	
	To'ldirma to'p bilan maxsus uloqtirish mashqlarini bajarish texnikasi	
	<b>Futbol sport turi bo'yicha</b>	
3.	To'pni oyoqning ichki, tashqi va tag qismi bilan to'xtatish texnikasi (1-3-marta)	5 ball
	To'pni nishonga oyoqning ichki va tashqi tomoni bilan tepish texnikasi (1-3-marta)	
	To'pni oyoqning ichki va tashqi qismida 20 m masofada olib yurish texnikasi (1-3-marta)	
	To'siqlar orasidan to'pni olib yurish texnikasi (5 ta to'siq)	
	To'pni yon chiziqdan o'yinga kiritish texnikasi (1-3-marta)	
	<b>Voleybol sport turi bo'yicha</b>	
4.	To'pni yuqoridan o'yinga kiritish texnikasi (1-3-marta)	5 ball
	To'pni pastdan o'yinga kiritish texnikasi (1-3-marta)	
	To'siq qo'yish texnikasini ko'rsatish (1-3-marta)	
	To'pni belgilangan nuqtaga yuqoridan va pastdan uzatish texnikasi (1-3-marta)	
	Diametri 180 sm doira ichida voleybol to'pini qisqa - qisqa yuqoriga uzatish (jonglyor) texnikasi (1-3-marta)	
	<b>Basketbol sport turi bo'yicha</b>	
5.	To'pni uzatish va oshirish (bir-ikki qo'lda ko'krakdan, poldan) texnikasi (1-3-marta)	

	Jarima to'pini savatga tashlash texnikasi (1-3-marta)	<b>5 ball</b>
	To'pni olib yurish texnikasi (1-3-marta)	
	To'pni ikki qadamda (pastdan, yuqoridan) savatga tashlash texnikasi (1-3-marta)	
	Basketbolda himoya (silindr) turish texnikasi (1-3-marta)	
	<b>Gandbol sport turi bo'yicha</b>	
6.	To'pni chap va o'ng qo'llarda olib yurish texnikasi (1-3-marta)	<b>5 ball</b>
	10 m masofaga to'pni yerga urib olib yurish texnikasi (1-3-marta)	
	Gandbol to'pini uchta qadam tashlab uzatish texnikasi (1-3-marta)	
	Darvozaga to'pni uchta qadam tashlab sakrab otish (6 metrli masofadan) texnikasi (1-3-marta)	
	Darvozaga to'pni sakrab otish (9 metrli masofadan) texnikasi (1-3-marta)	
	<b>Shaxmat</b>	
7.	Ko'rsatilgan sipohni yurish yo'nalishlarini ko'rsatib berish	<b>5 ball</b>
	Farzin va shox bilan raqib shoxini mot qilish (20 soniyada)	
	Ruh va shox bilan raqib shoxini mot qilish (20 soniyada)	
	Qaysi sipoh piyodalardan oldin o'yinni boshlashini ko'rsatish	
	Pot holatini ko'rsatib berish	
	<b>Kurash</b>	
8.	Kurashda yumshoq yiqilish (straxovka) holatlarini ko'rsatib berish texnikasi	<b>5 ball</b>
	Supurma usulini ko'rsatib berish texnikasi	
	Chil usulini ko'rsatib berish texnikasi	
	Usul va qarshi usullarga kirish va qayta chiqish (oyoq va qo'l harakatlari) texnikasi	
	Kurashchilarni maxsus chigalyozdi mashqlarini ko'rsatib berish texnikasi	
	Muvozanatdan chiqarish texnikasini o'rgatish (ayollar uchun)	
	Kurashda turish holatlarini ko'rsatib berish texnikasi (ayollar uchun)	

**Izoh:** 8 ta sport turidan bittadan mashq bajariladi va quyidagi mezon bo'yicha baholanadi:  
Mashqlar texnikasi to'g'ri va to'liq bajarilganda (texnik harakat yakuniga yetkazilganda) **5 ball**;  
Mashqlar texnikasi to'g'ri bajarilganda (texnik harakat yakuniga yetmaganda) **4 ball**;  
Mashqlar texnikasi qisman to'g'ri bajarilganda (texnik harakat yakuniga yetkazilganda) **3 ball**;  
Mashqlar texnikasi noto'g'ri bajarilganda (texnik harakat yakuniga yetkazilganda) **2 ball**;  
Mashqlar texnikasi noto'g'ri bajarilganda (texnik harakat yakuniga yetmaganda) **1 ball**.